

O'QUVCHILARNING BILISH JARAYONLARINI TASHXISLASHDA
QOLLANILADIGAN USUL VA VOSITALAR

Navbaxor Salayeva

*Xorazm viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri, ps.f.n.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktab o'quvchilarining bilish jarayonlarini tashxislashda qo'llaniladigan usul va vositalar o'z ifodasini topgan. Maqolada bo'sh o'zlashtirish sabablari va ularni bartaraf etish usullari keltirib o'tilgan.*

Annotation: *The reasons of poor progress and the ways of correction of cognitive process of junior school pupils are considered in the given article. Psychological peculiarities of children with Attention Deficit Disorder and hyperactivity are investigated.*

Аннотация: *В статье рассматриваются причины неуспеваемости и способы коррекции познавательного процесса учеников младшего школьного возраста. Исследуются психологические особенности детей с синдромом дефицита внимания и гиперактивности.*

Kalit so'zlar: *diqqat yetishmasligi sindromi, giperaktivlik, impulsivlik, bo'sh o'zlashtirish, nutqiy buzilishlar.*

Ключевые слова: *синдром нехватки внимания, гиперактивность, имплизивность, неуспеваемость, рече-вые расстройства.*

Key words: *cognitive process, school pupils, article. Psychological peculiarities, hyperactivity, investigated.*

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ularning o'quv-biluv faoliyatini amalga o'shirdirishdagi o'ziga xosliklar masalasi chet ellik olimlar hamda mamlakatimiz psixologlari tomonidan tatqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan. Ilmiy tatqiqotlar natijasida keltirilgan fikrlar, qarashlar hamda xulosalarda o'quvchilarning o'quv motivlari, baho olishga bo'lgan ishtiyoq va xohishi, qiziqishi, o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan munosabati, layoqati, uquvlilik darajasi va tirishqoqlik kabi masalalar o'ziga xos tarzda talqin qilingan.

E.G'.G'oziyev o'quvchilarning bilish faoliyatini tashxislashda muhim bo'lgan komponentlar bilan bir qatorda bo'sh o'zlashtirishning asosiy sabablari ham mavjudligini ta'kidlab o'tgan.

O'quvchilar sinfida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar mavjud bo'lsa, ularning bilish jarayonlaridagi muammolar, kamchiliklar ularning sinfdoshlaridan orqada qolish jarayonini yuzaga keltiradi. Bu esa sinfning sifat ko'rsatgichiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, maktab o'quvchilaridagi bo'sh o'zlashtirish sabablari va o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularning bilish jarayonini korrektsiya qilish pedagogik psixologiya yonalishidagi dolzarb masalalardan biridir. E.G'ozievning fikricha, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni shartli ravishda, pedagogik qarovsizlar o'quvchilar; intellektual sustlar; uquvchanligi past o'quvchilarga ajratish mumkin.

-Birinchi toifaga mansub o'quvchilarning orqada qolishining asosiy sababi bilim zahirasi yetarli bo'lmagan, noqulay pedagogik sharoit, “minimal me'yor” talablariga javob bermaslikdir. Shu sababli, bu toifaga o'qishni xohlamaydigan va o'quv faoliyati usullarini egallamagan o'quvchilar kiradi.

-Ikkinchi toifadagi o'quvchilarning bo'sh o'zlashtirishiga ijtimoiy va pedagogik omillar ta'sir qiladi, bular bolada bilish va intellektual faollikning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

-Uchinchi toifadagi o'quvchilar kam xarakter, kamgap, tortinchoq, sust, uquvlilik darajasi pastligi bilan ajralib turadi.

Pedagog va psixologlar tomonidan maktab yoshidagi o'quvchilarning bo'sh o'zlashtirishni sabalari o'rganilgan bo'lib, quyida ularning asosiy larini keltirib o'tamiz:

1. Pedagogik sabablar- O'quvchilarda o'quv motivlarining to'liq shakllanmaganligi. O'qituvchi tomonidan dars berish darajasining pastligi. O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishi. O'qituvchi tomonidan o'quvchining individual- tipologik xususiyatlarning inobatga olinmasligi hamda o'quvchilarga individual yondashmasliklikdir.

2. Psixologik sabablar- O'zini- o'zi ixtiyoriy boshqarish usullarining shakllanmaganligi. O'quvchining diqqat ko'lamining torligi. Diqqatining tarqoqligi va beqarorligi. Mexanik yoki uzoq muddatli xotiraning pastligi. O'ziga -o'zi past baho berishi hamda uquvsizlikni ko'rsatish mumkin.

3. Neyrofiziologik sabablar- Bilish jarayonidagi nuqsonlar, ko'rish, eshitish hamda nutqidagi kamchiliklar, barmoqlardagi mayda motorikaning sust rivojlanganligi. umumiy intellektidagi kamchilik va muammolar shular jumlasidandir.

E.G".G'oziyevning bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning yoshga oid o'ziga xosligi haqidagi tadqiqotlarida aniqlanishicha, bo'sh o'zlashtirish va o'ziga xos xulq- atvor , ko'p holatlarda, o'quv yilining boshida namoyon bo'lib, 1- sinfning boshidayoq 25-30% o'quvchilar o'qish, yozish va hisoblashni bo'sh darajada o'zlashtirishlarini ko'rish mumkin. Nutqi va sensomotorikasining rivojlanishi orqada qolgan bolalarga boshlang'ich sinfdayoq o'qituvchi tomonidan alohida e'tibor qaratilishi lozim, aks holda, ular o'qish va yozish ko'nikmasini egallay olmay qolishlari mumkin. Bu, ayniqsa, o'quvchining o'z ona tili va chet tillarni o'zlashtirishida jiddiy muammolarga sabab bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda umumiy orqada qolishning pedagogik- psixologik tipologiyasini ko'rib chiqamiz. Ularni shartli ravishda 1,2,3 tiplarga ajratamiz. 1- tipdagi bola, o'quv faoliyatida harakatchanligi bo'sh darajada bo'ladi. Bunday vaziyatda o'quvchi haqida shunchaki “ ishlamaydi”;

2- tipdagi bola, o'quv faoliyatida kam samaraga erishadi. Bunda o'quvchi o'quv topshiriqlariga ko'p mehnat va kuch ishlatadi, lekin uddalay olmaydi;

3- tipdagi bola, o'quv faoliyatida kam harakatli va kam samaraga erishadigan bolalar.

Yuqoridagi har bir xulq- atvor toifalari ichida yana quyidagi psixologik- pedagogik toifalarni ko'rish mumkin.

Birinchi toifadagilar uchun quyidagilar xos:

- O'quvchining maktabda turli ko'rinishdagi faolliklarga qaratilgan yaqqol namoyon bo'luvchi yo'nalganlik bilan bir qatorda, o'qishga nisbatan mustahkam motivlarning yo'qligi, hissiy - irodaviy sohada alohida funktsiyalarning biroz buzilishi, hissiy- irodaviy soha rivojlanishining orqada qolishi.

O'quv faoliyatida kam harakatli bolalarning umumiy xarakter belgilari quyidagicha: o'quv materiallarini idrok etishda diqqat qilmaslik, darsga qatnashmaslik yoki yaqqol intizomsiz xulq-atvor, topshiriqni juda sekin bajarish.

O'quvchining o'quv faoliyatiga sarflaydigan qunt va kuchi juda cheklangan vaqtga yetadi. Shu bilan birga, bu toifadagi o'quvchilar bilish jarayonlarining darajasi maktab dasturini qoniqarli darajada o'zlashtirishlari uchun yetarlidir. Xulq-atvor ustunlik qiluvchi motivlarini o'zining obro'li tengdoshlari tomonidan tan olinishida, faollik va amaliy faoliyatda o'z shaxsini namoyon etish ehtiyojida ko'rish mumkin. Bu ehtiyojni o'quv faoliyatida qondira olmaydi, shuning uchun bola o'z shaxsini turli xildagi maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ko'rsatishga harakat qiladi. Maktab ta'limi motivining shakllanmaganligiga sabab ota-ona tomonidan e'tibor yetishmasligi, unga o'qituvchilar tomonidan individual yondashuvning yo'qligi, tez va sezilarli natija berishda o'z amaliy faoliyatini ko'rsatishga harakat qilishda tarbiyaviy xolatiga suyana olmasligidir.

Ikkinchi toifadagilar uchun quyidagilar xos:

- bilish qobiliyatlarini rivojlanishining bo'sh darajasi, asab tizimining inertligi, uzoq vaqt davom etgan kasallik yoki oilada nosog'lom turmush tarzi sabab o'qishdagi uzilishlar. O'quv faoliyatida kam samaraga erishuvchi bolalarning asosiy xulq-atvori belgilari: bola juda ko'p kuch sarflaydi, lekin topshiriqni bajarishning uddasidan chiqolmaydi.

Uchinchi toifadagilar uchun quyidagilar xos:

- maktab ta'limining boshlang'ich bosqichidagi bo'sh intensivlik bilan shartlangan o'quv faoliyatining bo'sh samaradorligi, bir vaqtning o'zida o'quv faoliyatida bo'sh jadallik va bo'sh samaradorlik alomatlarining namoyon bo'lishi.

Bo'sh o'zlashtirishni keltirib chiqaruvchi omillardan yana biri bu kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda diqqat yetishmasligi sindromi va giperaktivlik bo'lib, bu muammo chuqur o'rganishni talab etadi, chunki ushbu muammo o'quvchilarda o'quvch faoliyatini amalga oshirish, bilish jarayonlarining rivojlanishi, muloqot ko'nikmalarining shakllanishi, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Dars vaqtida bunday bolalar topshiriqni bajarishi juda qiyin kechadi, chunki ular ishni tashkil qilish va tugutishga qiynaladilar, topshiriqni bajarish jarayonida tezda chalg'iydi. Ularning o'qish va yozish malakasi tengdoshlarinikiga nisbatan bo'shdir. Ularning yozuvlari pala-partish va diqqatning yetishmasligi, o'qituvchining ko'rsatmasini bajarmalik yoki o'ylab topish natijasi bo'lmish xatolar bilan tavsiflanadi.

Ushbu yonalish bo'yicha M.G.Davletshin va S.To'ychiyevaning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, bu bolalarning xatti-harakatida muammolar bog'cha davridayoq yuzaga keladi, bundan tashqari idrokdagi qiyinchiliklar aniqlangan bo'lib, ularda nutqiy buzilishlar, disgrafiya, disleksiya, motorika, sensomotor koordinatsiya va qo'l harakatining ephilligida muammolar kuzatiladi. Sh.Do'stmuhamedova tomonidan diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktiv bolalarda nutq faoliyatining o'ziga xosliklari tadqiq etilgan bo'lib, olingan natijalarga ko'ra, olimaning ta'kidlashicha, ushbu bolalarning nutqi o'ziga xos jihatlarga egadir. Ya'ni bolalarda aynan idrok, diqqat, tafakkurning bo'sh darajasi, grammatik qurilishini tushunishning buzilganligi, birlik va ko'plikdagi so'zlarni qo'llashda noaniqlik, matnni tushunish va aytib berishda fikriy nuqsonlar, grammatik qurilishni noaniq qayta tiklash va nomlar variatsiyasini noto'g'ri ajratish kabilar aniqlangan. Jumladan, bolalarning nutqiy ko'rsatkichlari bilan bilish

sohasining o'ziga xosligi o'rtasida ahamiyatli korrelatsion aloqaning mavjudligi aniqlangan. Bu holat esa ushbu toifadagi bolalarning nutqi va psixik jarayonlarini bir butunlikda rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zaruratini paydo qiladi.

Demak, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning boshqa toifalariga nisbatan, diqqat tanqisligi sindromli va giperaktiv o'quvchilarda turli xil nutqiy muammolar, diqqatning barqaror emasligi, idrokdagi kamchiliklar chet tillarni o'zlashtirishda ko'proq qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, ushbu toifadagi o'quvchilar ta'limi alohida e'tiborni talab etadi. Bu esa ularga ta'lim berish jarayonini qiyinlashtiradi va pedagogni bunday bolalarga yordam berish usullarini qidirishga majbur qiladi. Birinchi bosqichda individual, keyin esa guruhli ish amalga oshirilishi mumkin. Bola topshiriqni bajarayotgan vaqtda pedagog yoki kattalar bolaning o'quv harakatlarini bosiq ovoz bilan izohlab, nazorat qilib borishlari muhim hisoblanadi.

Bosh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda ushbu yonalishda olib borilayotgan ilmiy tatqiqotlar natijasida keltirilgan fikrlar, qarashlar hamda xulosalarda o'quvchilarning o'quv motivlari, baho olishga bo'lgan ishtiyoq va xohishi, qiziqishi, o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan munosabati, layoqati, uquvlilik darajasi va tirishqoqlik kabi masalalar bilan o'zaro bog'liqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.G.Davletshi.S. To'ychiyeva.Yosh va pedagogik psixologiya.T.:2004
- 2..E.G'.G'oziyev. Tafakkur psixologiyasi.T.:Universitet.2006.
- 3.E.G'.G'oziyev. Psixologiya fani metodologiyasi.T.: Universitet.2002
4. Sh.A.Do'stmuhamedovaning "O'qituvchilarning o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi" T.: 2000.
- 5.E.G'.G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi.T.: Universitet.2010